

MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALARNING NUTQIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI

Xasanboyeva Gulbahor Nasrullaevna

MTTDMQTMOI Maktabgacha ta'lim kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada duduqlanuvchi bolalarning nutqiy rivojlanishining o'ziga xosligi, duduqlanishning kelib chiqish sabablariberib o'tilgan.

Kalit so'zlar: korreksiya, duduqlanish, nafasni rivojlantirish, nevropatiya, reabilitatsiya, adabtatsiya, kompensatsiya, anatomik – fiziologik, mexanizm, artikulyatsion apparat.

L.I. Belyakova va Ye.A. Dyakovalarning fikricha, duduqlanish — bu nutqiy apparat muskullarining tortishishlari asosida og'zaki nutqning tempi, ritmi va ravonligini buzilishidir. Olimlarning ta'kidlashicha, bu nutq nuqsonining paydo bo'lishi nutqiy faoliyatning jadal rivojlanish bosqichiga mos kelib, 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Uni evolyusion duduqlanish (Yu. A. Florenskaya va boshq.) yoki duduqlanishning rivojlanishi (K.P. Bekker, M. Sovak va boshq.) deb atashadi. Bolalarda maktabgacha yoshda boshlangan duduqlanishga adabiyotlarda mustaqil nutqiy nuqson sifatida qaraladi va bosh miyaning turli organik kasalliklari yoki qator nerv psixik buzilishlari natijasida paydo bo'ladigan "simptomatik" yoki "ikkilamchi" deb nomalanuvchi duduqlanishdan farqlanadi.

N.A. Chevelyovaning ta'kidlashicha, duduqlanishning asosiy tashqi belgisi (simptomi) nutq jarayonida paydo bo'ladigan nafas, ovoz yoki artikulyatsion apparatdagi tortishishlardir. Tortishishlar qachalik ko'p va davomli bo'lsa, duduqlanish shakli shunchalik og'ir bo'ladi. Shu bilan birga tortishishlarning pereferik nutq apparatida davriy paydo bo'lishga ko'ra, uch xil turdagi duduqlanish farqlanadi: klonik; tonik; aralash.

Ancha yengil turi klonik duduqlanish hisoblanadi, unda tovushlar yoki bo'g'inlar takrorlanadi (n-n-n--non, pa-pa-pa-parovoz). Vaqt o'tishi bilan bu shakldagi duduqlanish ancha og'ir – tonik duduqlanishga o'tadi, bunda nutqda davomli to'htamlar so'zning boshi va o'rtasida kuzatiladi. («n___on», «avt___obus»).

Aralash turdagi duduqlanishlar orasida tortishishlarning ustunligiga qarab klono-tonik va tono-klonik shakllari farqlanadi.

Duduqlanishning paydo bo'lishiga ko'ra ular kuchsiz, o'rtacha va kuchli bo'ladi. Duduqlanish darajasini ajratish uchun aniq mezonlar mavjud emas. Amaliyotda odatda duduqlanish agar u unchalik sezilmasa va nutqiy muloqatga halaqit bermasa, kuchsiz hisoblanadi. Uzoq muddatli tortishishlar natijasida nutqiy muloqatning imkoni bo'lmasa, bunday duduqlanish kuchli hisoblanadi. Bundan tashqari, kuchli duduqlanishda shuningdek, qo'shib keluvchi harakatlar va embolofraziyalar ham kuzatiladi.

Qo'shib keladigan harakatlar shu zahotiyoyq paydo bo'lmaydi, odatda, ular nuqson avj olganda va ancha og'ir shaklga o'tganda paydo bo'ladi. Ular turli xil nonutqiy muskullar guruhining: bo'yin, gavda, oyoklarda namoyon bo'ladi. Ixtiyorsiz, ya'ni gapiruvchining ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan ravishda qo'shib keladigan va ixtiyoriy qo'shib keladigan harakatlar farqlanadi.

Ixtiyorsiz qo'shib keladigan harakatlar deb, nutq apparatining turli bo'limlarida paydo bo'luvchi, yuzda va tananing boshqa qismlarida namoyon bo'luvchi harakatlarga aytiladi. Bunda ko'zlar qisilishi, ochilib yopilishi, burun kataklarining kengayishi (Freshels refleksi), boshni egilishi



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

yoki chayqalishi, bo'yin muskullarining bosimini ortishi, barmoqlarni qisish, oyoqlari bilan tepinishi, gavda bilan turli hakatlar qilishi kuzatiladi.

Qator ixtiyorsiz harakatlar bilan bir qatorda duduqlanuvchilarda ixtiyoriy qo'shilib keladigan harakatlar ham kuzatiladi. Ular nutqiy apparatdagi torishishlarni yashirishga harakat qilgan holda, ongli ravishda turli usullarni qo'llashadi: yo'talishadi, oyoqlarini bir-birini ustiga chalkashtirishadi, qo'llarini qisirlatishadi, boshini aylantiradi, quloqlariga teginadi, tugmachalarini o'ynaydi, boshini qashlaydi va boshqalar.

Shuningdek, mutaxassislar ba'zan ixtiyoriy va ixtiyorsiz qo'shilib keladigan harakatlarni ajratish qiyinligini ta'kidlashadi, chunki, ular ko'pincha, bir turdan ikkinchisiga o'tib turadi. Agar biror marta u yoki bu harakat duduqlanuvchiga yordam berganini sezib qolsa, duduqlanuvchi uni ongli ravishda qo'llay boshlaydi. Unda bunday usul duduqlanishni sezilarli darajada pasaytiradi, degan ishonch paydo bo'ladi. Keyinchalik, bu usullar nutqini nafaqat yengillashtirmaydi, balki, uni nutqini yanada qiyinlashtiradi.

Duduqlanishni kuchayishi bilan yangi – nutqiy usullar paydo bo'ladi. Duduqlanuvchi o'z nutqini yengillashtirishni o'ylab stereotip so'zlar yoki tovushlarni qo'sha boshlaydi: «a», «e-e», «anu», «anaqa», «shunaqa», «nima edi», «ey» va hakoza. Bunday hodisa embolofraziyalar deb ataladi.

To'raligicha, duduqlanuvchi bolalarga harakatli bexavotirlik xos bo'ladi, doimiy betartib harakatlar, masalan, o'tirishda, sakrashda, tanani yoki oyoqlarni harakatlantirishda bolani turli tomonlarga "egilib" ketishini ko'rish mumkin. Bu behavotirlik uyquda ham kuzatilishi mumkin: ko'rpsini ochib tashlash, tunda g'ujanak bo'lib olishi, kravatda ko'ndalang yotish, yoki oyoqlarni yostiqqa qo'yib yotish kabilar.

Duduqlanuvchilarga xos bo'lgan yana bir belgi, og'zaki nutqdan qo'rqish hisoblanib, duduqlanuvchining fikricha, ma'lum so'z yoki tovushlarni talaffuz qilish qiyin. Bu xodisa logofobiya deb ataladi. Qo'rquv ta'sirida duduqlanuvchi bu tovushlar yoki so'zlarni umuman talaffuz qila olmaydi yoki ularda tutilib qoladi. Doimiy nutqdan qo'rqish shunga olib keladiki, duduqlanuvchi alohida "u uchun qiyin bo'lgan" tovushlar va so'zlarni almashtira boshlaydi. Oqibatda ko'pincha, ular aytishni hohlagan gaplar mazmuni buzilib ketadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, duduqlanishni barcha tavsiflangan belgilari noturg'un va o'zgaruvchandir. Duduqlanish turi o'zgarib goh tovushlar va bo'g'inlar takrorlanadi, goh, kutilmagan to'htamlar va tutilishlar kuzatiladi. Qo'shilib keladigan harakatlar ham o'zgaradi, ular turg'un bo'lmaydi, shuningdek, duduqlanuvchilarning "qiyin" tovushlari va so'zlari ham o'zgarib turadi. Masalan, bugun unga "p" va "t" tovushlarini talaffuz qilish katta qiyinchilik tug'dirayotgan bo'lsa, ertaga "b" va "g" tovushlari qiyinchilik tug'dirayapti, deb hisoblaydi yoki, qandaydir boshqa tovushlar yoki bo'g'inlarni talaffuz qilish ancha qiyindek tuyuladi. Usullari ham o'zgaradi, chunki, duduqlanuvchi har doim samaraliroq usullarni topishga harakat qiladi.

Duduqlanish darajasi ham doim o'zgarib turadi. Birdaniga duduqlanish paydo bo'lib "doimo joyida turmaydi" va logopedik ta'sirlarsiz esa, u kuchayib boradi. Duduqlanishni kuchayib briishining o'zi ham juda o'zgaruvchan bo'lib, u turli hil vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Bitta bolaning o'zi- o'zi bilan yolg'iz qolganida, o'yinchoqlari bilan, tengdosh suhbatdoshi bilan tutilmasdan gaplashadi, ammo, boshqalarning ishtiroki uning nutqiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'zini hotirjam sezadigan kishilar davrasida odatda uning nutqi unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Notanish yoki bola qo'rqadigan yoki uyaladigan kishilar bilan muloqatda shu zahotiyog, duduqlanish kuchayadi. Bunday holatda nutq umumiy jismoniy va hissiy emosional muhit bilan ham uzviy aloqada bo'ladi. Duduqlanish odatda kasal bo'lganda, charchaganda, ko'p harakatli o'yinlarda kuchayadi. Shuningdek, duduqlanish darajasini ob- havo, yil fasllari, yashash sharoiti, ovqatlanishi bilan bog'liq ravishda tebranishi kuzatiladi.

1970- yillardan boshlab adabiyotlarda duduqlanishda kuzatiladigan yangi klinik tavsiflardan dalolat beruvchi ilmiy maqolalar ko'proq chop etila boshladi. Kuzatishlar va tadqiqotlar asosida duduqlanishning ob'yektiv farqlangan klinik shakllari haqida tasavvurlar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotchilar duduqlanishning ikki xil klinik shakllarini ajratishadi: nevrotik va nevrozga o'xshagan shakllari, ular turli xil patogenetik mexanizmlarga bog'liq (V.V.Kovalev, N.M.Asatiani,



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

B.Z.Drapkin, L.I.Belyakova va boshq.). Nevrozlarga shifoxonalarda chegaralangan psixik holatlar, turli xil kuchdagi stressli omillar ta'siri va davomiyligi oqibatida kelib chiqadigan psixik- reaktiv funksional kasallik sifatida qaraladi.

Shu tariqa, maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanish qonuniyati bir qancha mavjud klassifikatsiyalarni belgilab, unda duduqlanish turli pozitsiyalarda ko'rib chiqiladi. Ammo, har qanday mavjud klassifikatsiya to'g'ri bo'lib, o'ziga xos ilmiy asosga ega.

Endi bevosita, maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarning nutqiy rivojlanishi xususiyatlariga to'htalib o'tamiz. Shu bilan bog'liq ravishda shuni qayd etish lozimki, odatda maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini psixologvistik tekshirish, asosan ularning kontekstli nutqiga tegishli bo'ladi. Bu tortishishli nutqiy tutilishlar monologik nutqda, boshqa og'zaki nutq turlariga nisbatan kuchliroq namoyon bo'lishi bilan tushunitiriladi.

Monologik nutq har qanday insonning muloqatida katta o'rin egallaydi. Uning o'ziga xos xususiyatlari ketma- ketligi, bog'langanligi, bir shaxsni o'z fikrini maqsadli bayon qilishi bilan xarakterlanadi. Leksik mazmunlarni to'g'ri tanlash, sintaktik to'g'ri qurish gapiruvchiga o'z fikrini aniq namoyon qilishga yordam beradi. Fikrni ichki dasturlash jarayoni bevosita nutqni aks ettirish jarayoni bilan bog'liq va taraqqiy etish xarakteriga ega.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, gapiruvchining fikri nafaqat unga mos leksik - grammatik va sintaktik qurilmalarni tanlash bilan bog'liqligida namoyon bo'lmasdan, balki, asosiy omil intonasion qismlarga ajratishga ham bog'lik ekan. Bu intonasion qismlarga ajratish kuchini faqat fikrni mazmunli tizimini aks ettiradigan ovoz modulyasisi natijalari deb hisoblamaslik kerak. Ushbu fikrni shakllanishi va uni verballashtirish jarayonida paydo bo'ladi.

Monologik nutq- nutqiy ontogenez jarayonida asta -sekin shakllanadi. Murakkab shakldagi nutqiy muloqatga o'tishda fikrni dasturlash tizimida, og'zaki vositalarni tanlash va mustaqil qurish bilan bog'liq qiyinchilik tug'iladi. Nutq rivojlanishining bu davrida fikrni shakllantirishni emosional bosimlar bilan qo'shib kelishi kuzatilib, bolada nafas olishning tezlashuvi, nutqning uzilishi, nutqni boshlashdan avval uzoq muddatli to'htamlar namoyon bo'ladi.

Duduqlanuvchi bolalar nutqini ko'p sonli tadqiqotlarini ko'rsatishicha, ular turli darajadagi nutqiy rivojlanishga ega bo'ladilar: ham yuqori, ham past. Ammo, ularning barchasida zarur so'zni topish, fikrni nutqiy tashkil etish bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatiladi, ularga ko'pso'zlik, sodda xulosa chiqarish xos bo'ladi.

Demak, nevrotik shakldagi maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar to'laqonli leksik vositalarga ega bo'ladi, o'z fikrlarini va uning asosiy qismini grammatik jihatdan to'g'ri qura olishadi. Ularda ma'lumotlarni mazmunli ketma- ketlikda berish tizimi buzilmagan. Shu bilan bir vaqtda bu toifa bolalar noto'g'ri kontekstli so'zlarni ko'p qo'llashadi, shuningdek, nevrotik shakldagi duduqlanuvchi bolalarda til birliklarni rivojlanish darajasi va ularni turli xil vaziyatlarda qo'llay olmasliklari bilan bog'liq nomutanosiblik kuzatiladi. Nevrotik shakldagi duduqlanuvchi bolalar tomonidan leksik vositalarni to'g'ri qo'llay olmasliklari mexanizmi, ularning nutqiy faolliklarini doimiy ravishda hissiy emosional holat ostida kechishi bilan bog'liq, deb taxmin qilinadi. To'laqonli me'yor bilan solishtirilganda, "leksemlarni tanlash" ko'rsatkichi bo'yicha monologik nutqni rivojlanish darajasi duduqlanuvchi bolalarda 6- 7 yoshda, ko'p hollarda nutq nuqsoniga ega bo'lmagan bolalar monologik nutqini rivojlanishi esa, 4- 5 yoshga to'g'ri keladi.

Nevrozga o'xshagan duduqlanishda bog'langan ma'lumotni dasturlash va til birliklari bilan mazmunli tashkil etishni dasturlash birdek qiyinchilik tug'diradi. Bu toifa bolalar matn mazmunini to'liq va ketma- ket bera olishmaydi. Ularning lug'ati kambag'al bo'lib, bolalar ulardan mustaqil bog'langan nutqda foydalana olishmaydi; gaplar tuzilishi jihatidan to'liq bo'lmaydi, gaplarni o'zaro bog'lanish usuli bir xilda bo'ladi. Shuningdek, fonematik idrokning buzilishi va dizartrik turga ko'ra nutqning tovushlar talaffuzi tomoni buzilganligi kuzatiladi. Bularning hammasi, nevrozga o'xshagan duduqlanishda nutqning to'liq rivojlanmaganligi yoki uning elementlari mavjud bo'ladi - deb hisoblash imkonini beradi.

Bundan tashqari, nevrozga o'xshagan duduqlanuvchi bolalarda so'zlarni faollashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar leksik vositalarning yetishmasligi bilan, monologik nutqning buzilishi esa, birinchi navbatda, til qobiliyatining yetishmasligi oqibati hisoblanadi - deb taxmin qilinadi.



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

Shuningdek, nevrotik va nevrozga o'xshagan duduqlanuvchi bolalar o'z xatolarini sezishmaydi, ularni tuzatishga harakat qilishmasli aniqlangan, bu esa ularda nutqning mazmunli tomonini nazorat qilishni pastligidan dalolat beradi. Agar, me'yorda leksik lug'at boyligi ulg'aygan sari ortib borsa, nevrotik shakldagi duduqlanishda u torayadi va bu monologik nutq sifatida aks etadi.

Yuqorida qayd etilganidek, duduqlanishning nevrozga o'xshagan shaklida nutqning rivojlanmaganligi turli darajada namoyon bo'ladi. Monologik nutq leksik vositalarning kambag'alligini, grammatik qurilishning ba'zi qiyinchiliklarini, matnning mazmunini to'liq dasturlab bera olmasligini xarakterlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, yosh ulg'aygan sari duduqlanuvchi bolalar monologik nutqini tashkil etishdagi tendensiyalar yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Demak, agar duduqlanuvchi bolada faqatgina monologik nutqni o'ziga xos rejalashtirish bo'lsa, katta duduqlanuvchilarda uni qisman tashkil etish aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqida ko'pgina oxiriga yetmagan grammatik va mantiqiy tugallanmagan iboralar va yolg'ondakam boshlashlar kuzatiladi, shuningdek, to'g'ri leksemalarni tanlash yoki grammatik qurilishlardagi qiyinchiliklar tashqi nutqga chiqariladi. Og'ir duduqlanishda ba'zan nutqda matndagi grammatik munosabatlar buziladi, mazmun esa ekstralingvistik vositalar orqali beriladi. Ko'pincha, kontekstli nutqning ba'zi iboralarida semantik ahamiyatga ega bo'lgan so'z tushirib qoldirildi, yoki aksincha "ortiqcha" semantik so'zlar bilan almashtiriladi. Nutq to'liqligicha amorf tuzilishi va asosiy mavzudan chetga chiqishi bilan xarakterlanadi. Shunga qaramasdan, barcha duduqlanuvchilarda nutqning mazmuni to'liq saqlanib qoladi.

Bu hodisalar duduqlanishning nevrozga o'xshagan shaklida ancha qo'pol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, grammatik qurilish va nutqni intonasion bezatish aziyat chekadi.

Nutqning mazmunli xususiyatlaridan tashqari, duduqlanuvchilar nutqida o'ziga xos to'htamlar kuzatiladi. Birinchidan, bolalar kabi kattalar ham me'yordagidan sezilarli darajada kam xezitasion to'htamlar qiladi. Ikkinchidan, duduqlanuvchilardagi to'htamlarning tarqalishi me'yordagidan ko'ra boshqacha bo'ladi. Ulardagi to'htamlarning kattagina qismi so'zlar ichida, so'zlar orasida va hatto, tugatilgan iboralar o'rtasida ham to'htamlar kuzatilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchilar nutqiga ko'p sonli to'htamlar xos bo'lib, ular akustik signal va nutq apparati muskullarining patologik tortishishlari bilan "to'ldirilishi" bilan xarakterlanadi. Aynan, shu to'htamlar nofononlogik shakllangan embolalar, yolg'on boshlashlar va takrorlashlar bilan uziladi.

Shu tariqa, yuqoridagilarni umumlashtirish duduqlanishning nevrotik shakliga quyidagi xususiyatlar xosligini tasdiqlash imkoniyatini beradi: Duduqlanish paydo bo'lgunga qadar erta nutqiy rivojlanish tendensiyasi; nuqson paydo bo'lguniga qadar yoyiq iboraviy nutqning mavjudligi; o'ziga xos xususiyalar (ta'sirchanlik, behavotirlik va hakoza); nutqiy patologiyaning psixogen boshlanishining xosligi (psixologik o'tkir va surunkali jarohatlar); duduqlanish 2 yoshdan 6 yoshgacha davrda paydo bo'lishi mumkin; tortishishli tutilishlar darajasi duduqlanuvchining emosional holati va nutqiy muloqat sharoitiga bog'liq; ma'lum bir sharoitlarda nutqning ravon bo'lishi (yolg'iz qolganda, emosional qulay sharoitda, e'tiborini gapirishdan faol ravishda boshqa narsa tortgan vaqtda va boshqalar).

O'z navbatida duduqlanishning nevrozga o'xshagan shakliga quyidagi xususiyatlar xosdir: Duduqlanish paydo bo'lguniga qadar nutqiy rivojlanishning orqada qolishi; motor funksiyalarning patologiyasini turli darajada namoyon bo'lishi; tortishishli tutilishlarning 3 - 4 yoshda paydo bo'lishi; tortishishli tutilishlarning paydo bo'lishi iboraviy nutqning rivojlanishi davriga to'g'ri keladi; duduqlanish asta-sekin, psixik jarohatlovchi vaziyatlarga bog'liq bo'lmagan ravishda boshlanadi; ravon nutq kuzatilmaydi, nutq sifati nutqiy vaziyatlarga bog'liq bo'lmaydi, faol diqqatni gapirish jarayonidan chalg'itish nutq jarayonini yengillashtiradi; jismoniy va psixik charchash nutq sifatini buzadi

Shu tariqa, barcha turdagi duduqlanuvchilar nutqining psixolingvistik mezonlarini tahlili bolalarda ham nevrotik, ham nevrozga o'xshagan duduqlanish shakllari mavjudligi haqida gapirish imkonini beradi. Shu bilan birga duduqlanuvchi bolalarning nutq apparati muskullaridagi tortilishli



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

faolliklarning mavjudligi, ularning nutqiy faoliyati tizimini, shuningdek, ichki nutqni darsturlashtirishni va nutqiy jarayonning psixik qismidan motor darajani amalga oshirishni buzadi. Bundan tashqari, amaliyotda ko'pincha, maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqiy patologiyalarning aralash klinik tasviri kuzatilib, ular duduqlanishni bartaraf etishga yo'naltirilgan korreksion ta'sirlarni qiyinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurkeldiyeva D.A., Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi, 2007.
2. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaktsiyey I.Yu.Levchenko i S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005.
3. Ayupova M.Yu. Logopediya. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
4. Aliqoriyeva A.N. "Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari" // "Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvidagi yangi yo'nalishlar" mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 48-51 bet
5. Aliqoriyev N.S. "Inklyuziv ta'lim boshqaruvining asoslari" // "Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvidagi yangi yo'nalishlar" mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 46, 48 bet
6. Alimova SH.X. "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish va rivojlantirish masalalari" // "Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvidagi yangi yo'nalishlar" mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 44-46 bet lar tomonidan tadqiq qilingan.

